

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2025 Vol. 4**

**tsuull.uz  
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2025 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[goldenscripts.tsuull.uz](http://goldenscripts.tsuull.uz)

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

**MAS'UL KOTIB**

Ozoda Tojiboyeva

**TAHRIR HAY'ATI**

Karl Rayxl (Germaniya)  
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)  
Seyhan Tanju (Turkiya)  
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)  
Benedek Peri (Vengriya)  
Vahit Turk (Turkiya)  
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)  
Eunkyung Oh (Koreya)  
Nazef Shahrani (AQSh)  
Boqijon To'xliyev  
Muhammadjon Imomnazarov  
Bilol Yujel (Turkiya)  
Qosimjon Sodiqov  
Zulxumor Xolmanova  
Mustafa O'ner (Turkiya)  
Nurboy Jabborov  
G'aybulla Boboyorov  
Kimura Satoru (Yaponiya)  
Imran Ay (Turkiya)  
Aftondil Erkinov  
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)  
Rashid Zohidov  
Otabek Jo'raboyev  
Bulent Bayram (Turkiya)  
Qo'ldosh Pardayev  
Nodirbek Jo'raqo'ziyev  
Oysara Madaliyeva  
Hilola Nazirova

**MUNDARIJA**

**MATNSHUNOSLIK**

**Bahriddin Umurzoqov**

Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik,  
xattotlik va kotiblik faoliyati

4

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

**Dilnavoz Yusupova**

Fanoyi Sheroziy "Tarixi muluki Ajam"  
asarining usmonli tarjimoni sifatida

16

**Marg'uba Abdullayeva**

"Maqsad ul-atvor" dostoni va uning g'oyaviy-  
badiiy xususiyatlari

29

**LINGVISTIKA**

**Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri

42

**To'lqin Tog'ayev**

Ashurali Zohiriy – jadid matbuotining  
atoqli vakili

63

**Ma'rufjon Dustmurodov**

Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun  
II bitigi: leksik birliklarning badiiy  
funktsiyasi

76

**MATN**

**Aftondil Erkinov**

"Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" dagi  
"Ohista-ohista" radifli g'azallar

140

|                               |  |
|-------------------------------|--|
| <b>EDITOR IN CHIEF</b>        |  |
| Shuhrat Sirojiddinov          |  |
| <b>DEPUTY EDITOR IN CHIEF</b> |  |
| Karomat Mullakhojaeva         |  |
| <b>EXECUTIVE SECRETARY</b>    |  |
| Ozoda Tojibaeva               |  |
| <b>EDITORIAL BOARD</b>        |  |
| Karl Rechl (Germany)          |  |
| Isa Habibbeyli (Azerbaijan)   |  |
| Seyhan Tanju (Turkey)         |  |
| Almaz Ulvi (Azerbaijan)       |  |
| Benedek Peri (Hungary)        |  |
| Vahit Turk (Turkey)           |  |
| Teymur Kerimli (Azerbaijan)   |  |
| Eunkyung Oh (Korea)           |  |
| Nazif Shahrani (USA)          |  |
| Bakijan Tukhliev              |  |
| Mukhammadjan Imomnazarov      |  |
| Bilol Yujel (Turkey)          |  |
| Kasimjan Sadikov              |  |
| Zulkhumor Kholmanova          |  |
| Mustafa O'ner (Turkey)        |  |
| Nurboy Jabborov               |  |
| Gaybullah Babayarov           |  |
| Kimura Satoru (Japan)         |  |
| Imran Ay (Turkey)             |  |
| Aftondil Erkinov              |  |
| Nadir Mamadli (Azerbaijan)    |  |
| Rashid Zahidov                |  |
| Atabek Juraboev               |  |
| Bulent Bayram (Turkey )       |  |
| Kuldosh Pardaev               |  |
| Nodirbek Jurakuziev           |  |
| Oysara Madalieva              |  |
| Hilola Nazirova               |  |

|                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>CONTENTS</b>                                                                        |     |
| <b>TEXTOTOLOGY</b>                                                                     |     |
| <b>Bahriddin Umurzoqov</b>                                                             |     |
| Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe           | 4   |
| <b>LITERATURE</b>                                                                      |     |
| <b>Dilnavoz Yusupova</b>                                                               |     |
| Fanoyī Shīrāzī as the Ottoman Translator of Tārīkh-i Mulūk-i 'Ajam                     | 16  |
| <b>Marguba Abdullaeva</b>                                                              |     |
| The Epic "Maqsad ul-Atvor" and its Ideological and Artistic Characteristics            | 29  |
| <b>LINGUISTICS</b>                                                                     |     |
| <b>Tanju Seyhan</b>                                                                    |     |
| The Function of Verbs in the Stylistic Framework of Ali Shīr Navā'ī                    | 42  |
| <b>Tulkin Togaev</b>                                                                   |     |
| Ashurali Zohiri is a Prominent Representative of the <i>Jadid</i> Press                | 63  |
| <b>Ma'rufjon Dustmurodov</b>                                                           |     |
| Karabalgasun II Inscription of the Uygur Khaganate: literary Function of Lexical Units | 76  |
| <b>TEXT</b>                                                                            |     |
| <b>Aftondil Erkinov</b>                                                                |     |
| Ghazals with the refrain "Ohishta-ohishta" in "Majmuat ush-shuarayi Firuzshahi"        | 140 |

## Ashurali Zohiriy – jadid matbuotining atoqli vakili

Toʻlqin Togʻayev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqola oʻzbek jadidchilik harakatining koʻzga koʻringan vakili Ashurali Zohiriyning noshirlik va jurnalistika sohasidagi ishlari, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tadqiq etishga bagʻishlangan. Xususan, maʼrifatparvarning oʻtgan asr 10-20-yillarida milliy matbuot, matbaachilik va boshqa madaniy-maʼrifiy jabhalardagi xizmatlarini yoritishga eʼtibor qaratilgan. Olimning matbuot vositasida millatni uygʻotish, insonlarda milliy ong va ruhni tarbiyalash, ularga oʻz erk va huquqini tanitish borasidagi xizmatlari ham koʻrsatib berilgan. Fargʻona matbuotining shakllanishi va rivojlanish jarayoni, gazetalar tarixi Ashurali Zohiriy timsolida, uning faoliyatiga asoslanib tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** *jadidchilik, muxtoriyat, istiqlool, Fargʻona matbuoti, ona tili, milliy ong, madaniyat.*

### Kirish

Ashurali Zohiriy (1885 – 1937) oʻzining qizgʻin ijtimoiy-siyosiy faoliyati, salmoqli ilmiy-ijodiy merosi bilan xalqimizning istiqlool yoʻlidagi kurashi, yuksak madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan siymolardan biridir. U oʻz davrining ilgʻor hodisasi sanalgan jadid ijtimoiy harakatchiligining faol vakili, oʻzbek maʼrifatchiligining atoqli arboblardan sanaladi. Samarqandda Behbudiy, Toshkentda Munavvar qori jadid ijtimoiy harakatining boshida turgan boʻlsa, Ashurali Zohiriy Fargʻona vodiysi maʼrifatparvarlarining yetakchisi edi.

Zohiriyning tariximizda tutgan oʻrni va ilmiy merosini keyingi yillari jiddiy oʻrganish boshlandi. 2022-yili unga bagʻishlab oʻtkazilgan “Ashurali Zohiriy – yurt va millat fidoyisi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani xayrli ishlardan boʻldi. Uning nomi mutaxassislarga yaxshi tanish boʻlsa-da, keng oʻquvchi ommasi hali yaqindan bilmaydi. Zotan, bu zot oʻz zamonida Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Choʻlpon singari mashhur edi.

---

<sup>1</sup> *Togʻayev Toʻlqin* – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** tm-togay@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-0809-3198

**Iqtibos uchun:** Togʻayev, T. 2025. “Ashurali Zohiriy – jadid matbuotining atoqli vakili”. *Oltin bitiglar* 4: 63 – 75.

### Asosiy qism

Uyg'onish davri ma'rifatparvar ziyolilari hayot taqozosi bilan ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli sohalarida ish olib borganlar. Ular ayni paytda pedagog-olim, yozuvchi-shoir, jurnalist-noshir sifatida va yana boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatganlar. Ashurali Zohiriy ham bundan mustasno emas. Olim pedagogik, adabiy-publitsistik, ilmiy-ma'rifiy, matbuotchilik va matbaachilik faoliyati bilan o'zbek xalqi madaniyati tarixida munosib o'rin tutadi.

Ashurali Zohiriy o'zbek jurnalistikasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan. U dastlab "Sadoyi Farg'ona" (1914), "El bayrog'i" (1917) gazetalarida faoliyat ko'rsatdi. 1917-yil 1-iyundan ona shahri Qo'qonda o'z muharrirligi ostida davrining eng oldi bo'lgan "Yurt" jurnalini chiqardi. Sho'rolar davrida "Xalq gazetasi" (1918 – 19), "Mehnat bayrog'i" (1921), "Farg'ona" (1921 – 1925), "Yangi Farg'ona" (1926 – 1930) gazetalarida adabiy xodim bo'lib ishladi. Hukumat tomonidan "Xizmat qahramoni" etib taqdirlandi [Фарғона, 1923].

XX asrning o'ninchi yillaridan Ashurali Zohiriy qizg'in ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi. Zakiy Validiy "Xotiralar"ida 1913-yili Farg'onaga kelganida mahalliy jadidlar bilan musulmonlar o'rtasida tashkilotchilik ishlari olib borishganini, targ'ibot ishlarini kuchaytirish uchun turkcha (o'zbekcha – T. T.) "Sadoyi Turkiston" va ruscha "Туркистанский голос" gazetalarini chiqarishni yo'lga qo'yganliklari haqida yozadi: "Bu gazetaning turkchasi haqida Toshkentda advokat Ubaydulla Xo'jayev, muallimlardan Munavvar Qori va Qo'qonda Ashurali Zohiriy bilan gaplashib, ularni Vadim Chaykin bilan yaqindan tanishtirdim" [Ahmad Zakiy Validiy To'g'on 1997, 41].

Gazeta chiqadigan shaharlar, uning dasturi, g'oyasi belgilangach, "Sadoyi Turkiston" Toshkentda, "Туркистанский голос" Andijonda chiqa boshladi. Izma-iz Qo'qon shahrida "Sadoyi Farg'ona" dunyo yuzini ko'rdi. Ushbu gazeta muharriri va noshiri taraqqiyparvar, ishbilarmon, keyinchalik Turkiston muxtoriyati hukumati tarkibiga kirgan Obidjon Mahmudov edi. Bunda musahhih (tuzatuvchi – korrektor) bo'lib ishlayotgan Ashurali Zohiriy gazeta faoliyatining tayanch kuchlaridan edi. Aslida, u gazetaning nashr va tahririyat ishlarini boshqargan.

"Madaniy davlatning barcha fuqarolari ma'rifatning porloq ziyosiga intilmog'i kerak. Madaniyat ziyosiga yo'l ochmoqning eng yaxshi omili matbuotdir", degan Mahmudxo'ja Behbudiy "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalarini "Turonning egizak farzandlari" deb ataydi, gazetxonlarga bu nashrlarni o'qish va ularga

obuna bo'lishni tavsiya etadi.

Darhaqiqat, "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalarining o'zbek xalqini erk va hurriyat, milliy birlik va taraqqiyot g'oyalari ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati katta bo'ldi. Garchi Turkistondagi chor ma'muriyati bu gazetalar nashrini 1915-yildayoq ta'qiqlagan bo'lsa-da, ular o'zbek xalqi milliy ongining uyg'onishida, erk va hurriyat g'oyalari bilan oshno bo'lishida, taraqqiyotga intilishida ulkan xizmat qildi.

"Sadoyi Farg'ona" tadbirkor Obidjon Mahmudov say-harakati bilan tashkil qilinib, 1914-yil 3-apreldan boshlab Farg'ona vodiysidagi birinchi milliy nashr sifatida chiqa boshlagan. Bu millat hayotida katta voqeya edi. Cho'lpon bu haqida Bokuda chiqqan "Yangi iqbol" gazetasida shunday deb xabar bergan: "...1914-yil sana aprel oyi biz, turkistonliklar uchun bir "milliy bayram" deyinilmag'a loyiq bir shay edi. Chunki, aprelning 2-yoki 3-inda Ho'qand tujjorlaridan muhtaram Obidjon afandi Mahmudof himmati ila "Sadoyi Farg'ona" isminda haftada ikki daf'a nashr qilinur bir g'azita chiqa boshladi. Butun Turkiston bu g'azitani buyuk bir shodliq va suyunch ila qorshi oldilar" [Qodirova 2019, 73 – 75].

Umuman, Turkiston matbuotini ilk martaba jamlab, tahliliy fikr bildirgan Cho'lpon bo'ladi. Uning kattagina hajmdagi "Turkistonda matbuot" maqolasi 1920-yili ozarboyjon nashri bo'lgan "Fuqaro fuyuzoti" jurnalida chop tilgan. Cho'lponning bu joyda maqola e'lon qilishi uning 1920-yili Bokuda bo'lib o'tgan Sharq qurultoyida ishtiroki bilan bog'liq. Cho'lpon bu maqolasida Turkistonda Oktyabr inqilobigacha dunyo yuzini ko'rgan nashrlar haqida o'rniga qarab ba'zan ko'proq, ba'zan qisqa ma'lumot berib o'tadi. Keyingi davr matbuoti to'g'risida maqolaning davomi jurnalning keyingi sonida bosilishi bildirilgan bo'lsa-da, chamasi, bu amalga oshmay qolgan. Cho'lpon Turkiston gazeta va jurnallari haqida ancha xolis fikr bildiradi. Xususan, "Sadoyi Farg'ona" haqida ham ikki-uch jumla qayd qilgan: "Sadoyi Farg'ona" (Farg'ona markazi Qo'qon shahrida) – taraqqiyparvar gazeta. Muharrir va noshiri hozirgi "Sharq qurultoyi" a'zosi Obidjon Mahmudof edi. Bu gazeta 126 no'merga qadar davom etib, moddiy jihatdan siqilaroq yopildi. Buning bir necha no'meri chiqqan ruscha tarjimasi ("Ферганское эхо") bor edi" [Cho'lpon 1998].

Abdulla Avloniy 1924-yili "Turkiston" gazetasida (24-iyun, 295-son) bosilgan "Burungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi" maqolasida o'lkada o'zbek tilida chiqqan nashrlar haqida xabar

berar ekan, "Sadoyi Farg'ona"ga shunday baho beradi: "Sadoyi Farg'ona", bu ham 1914-yil Qo'qonda "Sadoyi Turkiston" bilan bir kunda Obidjon Mahmudovning mas'uliyati ostida chiqa boshladi. Bu gazeta har jihatdan "Sadoyi Turkiston"dek bo'la olmadi. Qalam ahillarini o'ziga jalb qila olmasdan, inqirozga yuz tutib, nihoyat bu ham to'xtadi".

Qachonki, sho'rolar tuzumi mustahkam oyoqqa turib, o'zbek adabiyoti va adabiy tilini, milliy madaniyatini proletarlashtirish, sovetcha "baynalminallashtirish" jarayoni boshlangach, jadid ziyolilariga "burjua millatchilari" tamg'asi bosildi. Ayniqsa, katta avlod ziyolilarining sho'ro tuzumi, xalq uchun ziyonli ekanini fosh etishda Ziyosaid (Qosim Solihov)ning xizmatlari ajralib turadi. Jadidlar keskin tanqid qilingan turkum maqolalari va matbuotga oid "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1917)" kitobini e'lon qiladi. Kitobida "Sadoyi Farg'ona" haqida shunday ma'lumot berilgan: "Farg'onada birinchi marta o'zbek tilida chiqarilgan gazeta. Muharrir va noshiri Obidjon Mahmudov (Obid chatoq) edi. Musahhih bo'lib Ashurali Zohiriy ishladi. Usmon Nuriy (qrimlik tatar) tarjimon edi. Muxbir va yozishuvchilari yo'q bo'lmasa ham – kam, shuning uchun bu gazeta ko'p vaqt e'lonlar bilan to'lib chiqqan. Tili o'zbekcha deyilgan bo'lsa ham, arabcha, forsiycha ko'p bo'lishi ustiga o'sha usulda jumlar tuzilar edi.

Tiraji 500 – 600 bo'lib, haftada uch marta chiqar va mushtariysi juda oz bo'lganlikdan ko'pincha qo'lda sotilar edi. 1914-yil 13-aprelda chiqqan bu gazeta, shu yilning noyabr oyida yotib qoldi. Hammasi bo'lib yuz songa yetar-yetmas chiqdi" [Ziyosaid 1974].

Gazetaning jami nashr sonlari hisobida, faoliyati to'xtagan yili bo'yicha bu joyda yanglishlikka yo'l qo'yilgan, mazmunida anchayin sho'rocha sinfiylik sezilib turgan bo'lsa-da, bu tarixiy jihatdan e'tiborga loyiq. Ayrim manbalarda gazeta 123ta son chiqqan deyilsa, Cho'lpon buni 126 ta deb ko'rsatgan.

Gazeta sahifalarida Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Abdullabek Musobek hoji o'g'li, Shokir Muxtorov, Hamza, Vasliy, Muhammad Odil, Cho'lpon, Ibrohim Davron va boshqa mualliflarning jamiyat hayotining turli va muhim mavzularida publitsistik maqolalari e'lon qilib borilgan. So'fizoda, Tavallo va yosh Cho'lponning she'rlari bosilgan.

"Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 1-sonida (3-aprel) yozilgan "So'z boshi" Ashurali Zohiriy qalamiga mansub. Ma'rifatparvar unda milliy turmush, millat taraqqiyotida milliy

matbuot va adabiyotning o'rne to'g'risida qizg'in fikr yuritadi. Insonlarda milliy ong va hisni uyg'otishda, ma'naviy-ruhiy tarbiya sohasida yangi adabiyot va matbuotning qudratli vosita ekanini ko'rsatib o'tadi: "Gazeta har bir millatning tarjimonidirki, bilmagan narsalarini bildirar va ham millatning muddaosini boshqalarga bildirar < ... > Yana boshqa bir so'z bilan aytilsa, gazeta har bir millatning tilidir. Gazetasiz millat tilsizdir. Zero, tili va adabiyoti yo'q millat millat emasdir. Har kimning dunyoda tirik turmog'i uchun havo bilan suv qanday lozim bo'lsa, har qavmning hayoti saodati uchun ul millatning adabiyoti va matbuoti bo'lmog'i lozim" [Zohiriy 1914, 3-aprel].

Til – millatning ruhi, uning dunyoda borligining asosiy omili ekanini jadidlar ham teran anglaganlar. Shu sababli barcha zamonlarda xalqning asl farzandlari, ma'rifatparvar siymolar ona tilini millatga o'zligini anglatishda, uning qudratini, shon-shuhratini ko'tarishda, tushkun va tutqun zamonlarda esa ruhiyatini omon saqlash, unga qaytadan kuch bag'ishlashda zo'r qurol deb bilganlar. Xususan, milliy uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan XX asrning birinchi choragida ma'rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruhni uyg'otishda, milliy ongni o'stirishda tilga g'oyat katta ahamiyat berdilar. Negaki, ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili ekanligini komil darajada tushunganlar. Shu bois o'z tillarini rivoji uchun barcha choralarni ishga solib, bu yo'lda xizmat qildilar.

"Sadoyi Farg'ona" yo'lga qo'yilgach, Zohiriyning ko'p o'tmay e'lon qilgan "Ona tili" maqolasi "Bir millatning o'z tilidagi kitob, risola, gazeta, jurnol va boshqalarig'a bir so'z bilan, adabiyot (literatur) deyilur" jummalari bilan boshlanadi [Zohiriy 1914, 13-aprel]. Fikrini davom ettirib u shunday yozadi: "Dunyoda yashab turg'uchi har bir millatning ilmida, hunarda va boshqa to'g'rilarida qaysi darajada ekanligi adabiyoti bilan o'lchonilinib, adabiyoti boy bo'lg'on millatni har vajhdan oldinda va yuqorida e'tibor qilinur. Bilaks, adabiyoti bo'lmag'on, bo'lsa ham borlik, yo'qlik (o'rtasida – *T.T.*) bo'lsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va e'tibori bo'lmas. Va ham har nav hayot ijtimoiya va madaniyatdan bahra ololmas". "Bas, endi bizda ham ul "adabiyot" degan narsa bormu? Yo yo'q?" – deya savol qo'yadi va bunga o'zi: "Yo'q desa xato bo'lmaydurg'on darajada bordur..." deya javob beradi. Millatning ulamo va mudarrisarlari va xoh yosh o'smirlar bo'lsun, bu muqaddas ona tilini tiriltirmoq u yoqda tursin, balki yo'qotmoqlikka sabab bo'layotganliklaridan qayg'uradi. Ulamolar o'z xat yoki yozishmalarini ona tillari qolib, forsiy tilda

bitishlarini, hammasidan zararlisi – shogirdlarga arabcha sarf, nahv darslarini o'z tillari qolib, forsiy til vositasida o'rgatishlarini tanqid qiladi. “Ona tilig'a muhabbat va islohi” umid qilingan yosh o'smirlar esa o'zaro xat-yozuvlarida usmonlicha yoki tatarcha yozishlaridan ranjiydi. Muallifga ko'ra, bularning birinchilari eron adabiyoti, ikkinchilari tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochganliklari bois “o'z ona tillarig'a haqorat nazari bilan boqub, kundan kun esdan chiqormoqg'a boshlaydurlar”. Behbudiy hazratlari fikrlariga hamohang “porsiycha, arabcha, uruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas, juda yaxshi bilaylik. Lekin o'z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyodroq bilaylik, sarf va nahvlari bilan bilaylik... Qachonki, o'z ona tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz”, – deb yozadi.

Tarixda mavlono Lutfiy, Alisher Navoiydek zotlar ona tilining boshqa tillarga nisbatan boyligini, she'riyatdagi yuksakligini, musiqada bo'lgan latofatini o'z asarlari bilan ko'rsatib berganliklarini namuna qilib keltiradi. “Ona tiliga muhabbati bor kishi ham Amir Navoiy asarlarini o'qub ko'rganda, tilimiz avvalda shuncha boy va mukammal ekan, nima qildikki ul latofat, ul nafosatlarini yo'qotib, kishi tonimoydurg'on bir holga kelturub qo'yduk, deb ohlar tortur” .

Mana bu fikrlar esa maqolaning mohiyatini ifodalaydi: “Nechukki, har bir insonning jonidan aziz narsasi din va millatidir. Ul din va millatni muhofazati ham har afrodi insonga vojibdur. Oni muhofazati ona tili muhofazati bilan bo'lur. Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo'qotur”.

Tatar qardoshlarning bu paytdagi til va adabiyotlarining taraqqiysi ularning milliy va ona tilidagi gazetalari bilan bo'lganini ko'rsatadi. Gazeta va jurnallar dunyo ahvolidan va boshqalar borasida xalqqa xabar berib, fikrini o'stirish bilan birga, “ona tilining kengg'oymog'i va mukammallashmog'i”ga katta foydasi bo'lishini uqtiradi. Milliy tilning taraqqiysi uchun qayg'urmay turgan Turkiston gazeta va jurnallarini ona tiliga xizmat etishga chaqiradi: “Takror aytaman, gazeta ona tilig'a xizmat etsun! Vaqti kelganda millatini tili yo'qlar qatorida qoldirmasun!”.

Faoliyatining ilk pallalaridan ona tili uchun qayg'urgan Ashurali Zohiriy ham umrining oxirigacha milliy til uchun kurash maydonida turdi. Sho'rolar davlati sharoitida ham bu tuzim bergan imkoniyatlardan foydalanib, o'zbek xalqining milliy manfaatlarini himoya qildi. U ona tilini davlat tili bo'lishi uchun kurashdi. Davlat muassasalarida ish yuritishni o'zbek tilida olib borish masalasini doim ilgari surdi [Zohiriy 1923, 13-may; 1924, 199-son].

“Sadoyi Farg‘ona” sahifalarida Zohiriyning turli mavzularda yurt va jamiyat hayotining qizg‘in masalalari aks etgan o‘nlab maqolalari e‘lon qilindi. Keyinchalik zamon o‘zgarib, dunyo yuzini ko‘rgan Farg‘ona matbuot nashrlarida ham jo‘shqin faoliyat yuritdi.

Taniqli jurnalist, olim Halim Saidov Farg‘onada chiqqan “El bayrog‘i”, “Yangi Sharq”, “Mehnat bayrog‘i”, “Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona” kabi gazetalar asli “Sadoyi Farg‘ona”dan boshlanganini asoslab beradi. Ashurali Zohiriyga haqqoniy baho berib, uning bu silsilalar shodasini asosiy bog‘lovchi halqa rolini ado etganini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Muallif “...gazetaning muassisu muharrirlari, nomi o‘zgaradi, lekin jamoalarda har doim bog‘lovchi mehvar vazifasini millat fidoyisi Ashurali Zohiriy bajarib turadi” [Saidov 2014] deganda, butkul haq edi.

Darhaqiqat, Ashurali Zohiriy hayoti, faoliyati, boringki, taqdiri Farg‘onada chiqqan mana shu asosiy nashrlar bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, u Turkiston Muxtoriyati qadar qisqa umr ko‘rgan, uning rasmiy organi bo‘lgan “El bayrog‘i” gazetasiga 1918-yildan Po‘lat Soliyev bilan hammuharrirlik qildi. “Yashasin Turkiston Muxtoriyati” so‘zlarini o‘ziga shior qilib olgan bu gazeta muvaqqat milliy hukumat siyosatini yoritib boruvchi davriy nashr edi. Gazeta sonlarida e‘lon qilingan maqolalar mazmunida muxtoriyatchilik, milliy davlat, uni boshqarish va mustahkamlash, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, milliy-ma’naviy sohalarini rivojlantirish masalalari aks etgan [Vohidova 2023, 12 – 16]. Ziyo Said “El bayrog‘i”ni bolsheviklarga, proletariat sinfiga qarshi kurashishda ayblaydi. Bu nashr aksilinqilobiy gazeta sifatida sho‘ro davlati tomonidan tugatildi. Ashurali Zohiriyning bundagi faoliyati keyinchalik uning sovetlar tomonidan “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilinishida qo‘l keldi.

Ashurali Zohiriyning Farg‘ona gazetalar tarixi haqida ma’lumot bergan ikkita maqolasi mavjud. Birinchisi – “Farg‘ona” gazetasining 1924-yil 181-sonida “Olti yillik o‘zbek adabiyoti (bosma so‘zi)ga bir qarash” nomli maqolasi bo‘lsa, ikkinchisi – “Farg‘ona” gazetasining 1926-yil 27-maydagi 402-sonida bosilgan “Farg‘ona” gazetasining tarixi va muvaffaqiyatlari (besh yoshga to‘lishi munosabati bilan)” nomli maqolasidir. Turgan gapki, bu maqolalarda inqilobdan oldingi “Sadoyi Farg‘ona” yoki boshqa nashrlar to‘g‘risida so‘z yuritilmagan. Ikki yil farqi bilan chiqqan bu maqolalardagi “Farg‘ona” gazetasi tarixiga oid ma’lumotlar asosan mos keladi va bir-birini to‘ldiradi. Gazeta mas’ul muharrirlarining ko‘rsatilishi, ular ism-familiyalarining qisqa yoki to‘liq shaklda yozilishi jihatidan

biroz farqli o'rinlar ham mavjud. Masalan, 1924-yilgi maqolada "Bu muddat ichida "Farg'ona" gazetasi: Fotih Sulaymon, Nabi Mansur, Ayn Karim, Abdulla Rahmat, Mirzohid Oqil, S. Saydali, Sulton Segiz yana A. Karim o'rtoqlarning mas'ul muharrirliklari ostida chiqib keldi" deb ko'rsatilgan. 1926-yilgi maqolada esa bu quyidagicha aks etgan: "5 yil ichida "Farg'ona" gazetasida mana bu o'rtoqlar muharrirlik etdilar: 1) Botu, 2) Fotih Sulaymon, 3) Nabi Mansurof, 4) Abdullajon Karim o'g'li, 5) Sulton Segizboy o'g'li, 6) Mirzohid Oqiliy, 7) Sayidsulton Sayidali o'g'li, 8) Mirza Hakimali o'g'li, 9) A. Rahmat, 10) Xolmuhammad Oxundiy".

Birinchi maqolada sho'rolar tuzumi o'rnatilgandan keyin Turkiston Muxtor Sho'rolar Jumhuriyati (TASSR) olti yillik davrida bu o'lkada, xususan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysida bosilgan o'zbekcha gazeta va jurnallar haqida, ayrim gazetalarning til va texnik jihatdan yutuq va kamchiliklari borasida ma'lumot berilgan, shuningdek, sahna va badiiy asarlar to'g'risida ham muxtasar fikrlar bildirilgan. "Olti yillik o'zbek qizil adabiyotining yetishtirgan qizil qalam imzolari"dan Usmonxon, Julqunboy, G'ozir Yunus, Botu, Elbek, A. Rahmat, Saydalixoj, O'ktam, Sanjar, Vadud Mahmud, Mannon Ramz, Abdulhay Toji, Abdulmo'min Sattoriy, A. Maqsudiy, Ziyosaid, Komiljon, Pafiq va G'ayratiy kabilarni ko'rsatsa, yangi shoir va yozuvchilar sifatida Said Ahmad, Zehniy, Bektosh, Muxtor, Mahmud, Ahmad Shukuriy, Anqaboy, Tillaxon qizi, Usmon Akromiy kabilarni tilga oladi.

Ashurali Zohiriyning "Olti yillik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash" nomli maqolasi chop etilgan "Farg'ona" gazetasining 1924-yil 181-sonida "Qizil o'zbek matbuotimizning olti yilligi" nomli bosh maqola, shuningdek, Lutfulla Olimiyning "Qizil adabiyotimizning hozirgi holi" va Abdurahmon Sa'diyning "Olti yillik o'zbek qizil matbuoti davrida maktab adabiyoti" nomli maqolalari ham o'rin olgan. Gazetaning ushbu soni sakkiz sahifada chiqqan.

O'zbek qizil matbuotiga olti yil to'lishi munosabati bilan "Turkiston" gazetasi "Farg'ona" gazetasining boshqarmasiga tabrik yo'llagan.

Gazetaning birinchi sahifasida "Farg'ona" gazetasining butun "tahririya idora ishchilari": A. Rahmat, A. Zohiriy (hay'at tahririya), Nosirjon Ziyosaid (idora mudiri), Yunusjon Og'aliy (muvazze' – ekspeditor) kabilarning birga tushgan surati bor. Keyingi sahifalarda Botuning surati (izohi bilan: 1921-yil 27-may "Farg'ona" gazetasi boshlab chiqq'ondagi hay'at tahririya boshlig'i ham qadrli yosh

shoirimiz o'rtoq Botu), Cho'lpon (yosh shoirimiz – Abdulhamid Sulaymon), S. Segizboyev, A. Karim (bosh muharrir) va gazetaning boshqa texnik xodimlari surati bosilgan.

Ikkinchi maqola to'g'ridan-to'g'ri "Farg'ona" gazetasi tarixiga bag'ishlangan. Unda dastlab gazeta 1919-yili 1-iyulda Farg'ona shahrida Farg'ona viloyati firqa qo'mitasi va viloyat inqilobiy qo'mitasi fikr tarqatuvchisi bo'lib, "Yangi Sharq" nomi bilan chiqqani qayd etilgan.

Maqolani o'qib, 1921-yil yanvar oyi o'rtalarida Farg'ona viloyati markazi Qo'qonga ko'chgach, u bilan birga "Yangi Sharq" gazetasi idorasi ham bu yerga ko'chgani, gazetaning 4(96)-sonini chiqargani, uning avvalgi muharriri Qosim Sarokin bo'lganidan xabar topamiz.

Ko'p o'tmay "Yangi Sharq" gazetasi Qo'qonda chiqib turgan "Знамя труда" gazetasining nomini olib, ya'ni uning "musulmonchasi bo'lib" "Mehnat bayrog'i" nomi bilan chiqa boshlaydi. Zohiriy yozishicha, "Mehnat bayrog'i" "...avvalda Qosim Sorokin, keyin Rashid Ibrohim degan "shoir"ning mas'ul muharririligi ostida 1921-yil 25-maygacha davom etib keldi".

Zohiriy maqolasidan quyidagi parchani bu o'rinda keltirishni lozim topdik. Zero, "Farg'ona" gazetasining hayot yo'li, shunday nomlanishi, tadrijiy takomili bilan aloqador bu jumlar qimmatli manba bo'la oladi. Zohiriy shunday ma'lumot beradi: "Farg'onadagi bosmachilik bilan turli yo'lda qattig' kurashmoq maqsadida, o'rtoq To'roqulov shu 21-yil 15-martdan e'tiboran Turkistonning o'rta va oliy maktablaridagi o'qug'uchilardan besh yuz nafarini Farg'onaga safarbarlik bilan keltirdi (Davlat dorilfununi, ishchi fakulteti talabalari va boshqa ishchilar bilan).

Bu keltirganlarning ichida yosh shoirlarimizdan Botu, "Ishtirokiyun" gazetasida bir muncha vaqt muharrirlik qilg'on Umar Alimuhammaduf, hozirgi "Ozod Buxoro" gazetasi muharriri Fotih Sulaymon, hozir Qozon dorilfununida o'qiydigan Is'hoq Hamzin va boshqalar bor edi. Shu uchun bunda chiqib turgan gazetani yosh kuchlar bilan yangi va yaxshi yo'lg'a qo'ymoq uchun o'sha yil 25-mayda yuqorida aytilgan kishilar ham Nazir To'raqulov va mening ishtirokim bilan kengash majlisi bo'ldi. Shunda <...> "Mehnat bayrog'i" berkitilib, muharriri chiqarilib, yangi gazeta chiqariladurg'on bo'ldi. Menim taklifim bilan "Farg'ona" ismi qo'yilib, 27-mayda birinchi soni chiqdi. Muharriri tahrir hay'ati edi. Hozirgi "Farg'ona" o'shaning davomi" [Zohiriy Ashurali 1926].

Ashurali Zohiriy buni *birinchi davr* deb belgilaydi.

Tahsillar boshlanib, Toshkentdan borgan talabalar ketganlaridan so'ng Fotih Sulaymon muharrirligida chiqa boshlagan "Farg'ona" gazetasi 1921-yilning oxirigacha 60ta son 700 nusxada nashr etilgan. 1922-yil boshidan 20-dekabrigacha gazetaning 58-soni chiqib, mablag' yo'qligi uchun to'xtab qoladi. 1923-yilda esa umuman bosilmaydi. Nabi Mansurov gazetaga muharrirlik qilgan bu vaqtni matbuot faoli *ikkinchi davr* deb ataydi.

1923-yil fevral oyida Abdulla Karimov Farg'ona viloyat qo'mitasiga mas'ul kotib bo'lgach, u "Farg'ona"ning davom etishini moddiy tomondan qo'llab-quvvatlaydi. Gazetaning 59-soni 19-fevraldan Abdulla Karimov muharrirligi ostida chiqa boshlaydi va to'xtamay davom etadi. Zohiriy maqolasida bu vaqtni *uchunchi davr* sifatida ko'rsatadi.

Gazetaning shu sonida, tahririyatniki bo'lsa kerak, "Farg'ona" gazetasining tilimizga qilg'on xizmati" unvoni bilan kichikroq maqola berilgan. Undagi ba'zi ma'lumotlar "Farg'ona" gazetasi haqidagi tarixiy sahifalarni tiklashda asqotadi. Chunonchi: "1921-yilda yosh shoirimiz Botu va til bilgichlarimizdan Ashurali domla va bir necha yosh kuchlarning urinishi orqasida ta'sis etilgan "Farg'ona" gazetasini hech ikkilanmay chinakam o'zbek tilida chiqqan, chiqib turgan birdan bir gazeta deb da'vo qilsak, hech kim bunga bir nima deb aytmas, deb o'ylaymiz". Bu maqola o'sha chog'da chiqib turgan gazetalarning til xususiyatlarini tekshirgan va fikr bildirgan.

1926-yilda Ashurali Zohiriy "Farg'ona" gazetasida texnik muharrir bo'lib xizmat qilgan. Gazeta nomi "Yangi Farg'ona"ga o'zgargandan keyin ham 1930-yil oxirigacha shu joyda ishladi.

1992-yili Ashurali Zohiriyning Qo'qon shahridagi uyiga borib, qizlari Mohira xola bilan suhbatlashganimizda, ularning aytishlariga ko'ra, otalarini NKVD xodimlari birinchi marta 1930-yili 31-dekabrda olib ketishgan. Yangi yil kiradigan kun uyda mehmonlar bo'lgan. O'sha kun gazeta chiqadigan kun bo'lgani uchun Zohiriy hali tahririyatdan uyga qaytmagan. Uni izlab kelganlar ishdan qaytayotgan Zohiriyini yo'lda tutib ketishgan ekan.

Shundan boshlab u rasmiy matbuotda butunlay ko'rinmaydi. 10 yilga hukm qilingan Zohiriyning Moskva-Volga kanali qurilishida ishlab yurgan kezlari o'zi tashkil etgan qamoqxona gazetasidagi chiqishlari bundan mustasno, albatta. Hatto 1934-yil noyabr oyida qaytib kelib, 1937-yilda takror hibsga olingunga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida ham bunga ruxsat berilmagan.

Umuman, 1910-yillardan Turkiston vaqtli matbuotida faol qatnasha boshlagan Ashurali Zohiriy Farg'onada chiqqan gazeta-

jurnallar tashkilotchisi, muharriri, xodimi bo'lgani holda matbuotda ko'plab dolzarb maqolalar e'lon qildi. Xususan, "So'z boshi" (Sadoyi Farg'ona, 1914-y, 3-aprel), "Ona tili" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y, 13-aprel), "Davlat dumasi" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y, 16-aprel), "Pilla kam tutilmog'ining sabablari" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y, №15, 16, 17), "Yordam o'rnig'a bizlar bir-birimizni ezishamiz" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y, 8-iyun), "Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgon?" ("Sadoyi Farg'ona", 1914-y, 60-son), "Turkistondan birinchi yurist" ("Sadoyi Farg'ona", 1915-y, 15-may), "Hukumat o'zgarishi" ("Yurt", 1917-y, 1-son), "Yangi imlo atrofida" ("Mehnat bayrog'i", 1921-y, 10-mart), "12-firqa qurultoyida millatlar masalasi" ("Farg'ona", 1923-y, 13-may), "O'tkanlarga bir qarash" ("Farg'ona", 1923-y, 100-son), "Bir yil to'ldi" ("Farg'ona", 1924-y, 199-son), "Olti oylik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash" ("Farg'ona", 1924-y, 21-iyun), "O'zbeklar" ("Farg'ona", 1926-y, 346-son), "Turkiyot qurultoyi to'g'risida" ("Farg'ona", 1926-y, 384-son) kabilar shular jumlasidandir. Ularda zamonning eng dolzarb masalalari: ona tili muhofazasi, islomiy axloq, madaniy-dunyoviy ma'rifat, yangicha ta'lim-tarbiya, milliy uyg'onish, hurriyat, taraqqiyot, milliy davlatchilik g'oyalari, iqtisodiyot va maishiy turmush masalalari, shuningdek, olimning tilshunoslik, adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan.

### **Xulosa**

Xullas, Ashurali Zohiriy zamonning atoqli ma'rifatparvarlari qatorida mustamlaka tuzumining tazyiqlariga qaramasdan, o'z hayotini o'zbek xalqining milliy istiqboliga, har jihatdan taraqqiy etishiga, ma'naviy kamolotiga, ona tilimizning ravnaq topishiga bag'ishladilar. Muvaffaqiyatga erishishda matbuot kuchiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, zamon o'zgarishlariga qaramay, vorisiylik bilan davom etgan Farg'ona matbuotining asosiy nashrlari rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Haqiqiy vatanparvar va millatparvar sifatida yorqin iz qoldirgan bu zotning faoliyati bo'yicha yangi va yaxshi tadqiqotlar amalga oshirishi zarur.

### **Adabiyotlar**

- Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. 1997. Bo'linganni bo'ri yer. Toshkent: Adolat. 179. *Farg'ona*, 1923. №100.
- Saidov, H. 2024. "Farg'ona haqiqati"ning asoschilari bolsheviklarmi? yoxud "Sadoyi Farg'ona"dan "Farg'ona haqiqati" gacha". *Farg'ona haqiqati*, 5-yanvar.
- Vohidova, K. 2023. "El bayrog'i" gazetasi haqida". *Ijtimoiy-gumanitar*

- fanlarning dolzarb muammolari*. №8 (3).
- Cho'lpon. *Turkistonda mathbuot*. 1998. Nashrga tayyorlovchi: T.Tog'ayev. "Jamiyat va boshqaruv". 2-son.
- Qodirova, G. 2019. "Sadoyi Farg'ona" gazetasi – o'lka hayotidagi muhim hodisa sifatida. *INFOLIB*, 3-son.
- Ziyo Said. 1974. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Zohiriy Ashurali. 1914. *So'z boshi*. *Sadoyi Farg'ona*. 3-aprel. №1.
- Zohiriy Ashurali. 1914. Ona tili. *Sadoyi Farg'ona*. 13-aprel.
- Zohiriy Ashurali. 1923. "12-firqa qurultoyida millatlar masalasi". *Farg'ona*, 13-may.
- Zohiriy Ashurali. 1924. Bir yil to'ldi. *Farg'ona*, 199-son.

## Ashurali Zohiri is a Prominent Representative of the *Jadid* press

Tulkin Togaev<sup>1</sup>

### Abstract

This article is devoted to the study of publishing and journalistic activities of Ashurali Zohiri, a prominent representative of the Uzbek *Jadid* movement, as well as his socio-political engagement. Particular attention is paid to the enlightener's contributions during the 1910s–1920s to the development of the national press, printing and other cultural and educational spheres. The study also highlights the scholar's efforts to awaken the nation through the press, to cultivate national consciousness and spirit among the people, and to promote awareness of civil rights and freedoms. The process of formation and development of the Ferghana press and the history of newspapers are examined through the figure of Ashurali Zohiri, with particular emphasis on his activities and legacy.

**Key words:** *Jadidism, autonomy, independence, Ferghana press, native language, national consciousness, culture.*

### References

- Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. 1997. Bo'linganni bo'ri yer. Toshkent: Adolat. 179. *Farg'ona*, 1923. №100.
- Saidov, H. 2024. "Farg'ona haqiqati"ning asoschilari bolsheviklarmi?

---

<sup>1</sup> Togaev Tulkin – Candidate of Philological Sciences, Docent, Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: tm-togay@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-0809-3198

For citation: Togaev, T. 2025. "Ashurali Zohiri is a prominent representative of the *Jadid* press". *Golden Scripts* 4: 63 – 75.

- Yoxud “Sadoyi Farg‘ona”dan “Farg‘ona haqiqati”gacha”.  
*Farg‘ona haqiqati*, 5-yanvar.
- Vohidova, K. 2023. “El bayrog‘i” gazetasi haqida”. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. №8 (3).
- Cho‘lpon. *Turkistonda matbuot*. 1998. Nashrga tayyorlovchi: T.Tog‘ayev. “Jamiyat va boshqaruv”. 2-son.
- Qodirova, G. 2019. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi – o‘lka hayotidagi muhim hodisa sifatida. *INFOLIB*, 3-son.
- Ziyo Said. 1974. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.
- Zohiriy Ashurali. 1914. *So‘z boshi*. *Sadoyi Farg‘ona*. 3-aprel. №1.
- Zohiriy Ashurali. 1914. Ona tili. *Sadoyi Farg‘ona*. 13-aprel.
- Zohiriy Ashurali. 1923. “12-firqa qurultoyida millatlar masalasi”. *Farg‘ona*, 13-may;
- Zohiriy Ashurali. 1924. Bir yil to‘ldi. *Farg‘ona*, 199-son.